

SHARTNOMA № 18/04
«YUZ.UZ» AXBOROT PORTALIDA REKLAMA JOYLASHTIRISH BO‘YICHA

Toshkent shahri

2023-yil «25» aprel.

«Yangi O‘zbekiston» va «Pravda Vostoka» gazetalari tahririysi DK nomidan 2020-yil 6-yanvardagi 2-p-sonli buyruq asosida bosh muharrir o‘rinbosari v. b. Sh. I. Xidirov bir tomondan (keyingi o‘rnlarda «Bajaruvchix» deb yuritiladi) hamda Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chорvachilik va biotexnologiyalar universiteti nomidan X.B. Yumusov asosida ish olib boruvchi rektor X.B. Yumusov ikkinchi tomondan (keyingi o‘rnlarda – «Buyurtmachi», birqalikda – «Tomonlar») ushbu shartnomani quyidagilar to‘g‘risida tuzishdi:

1. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1. Bajaruvchi mazkur shartnomada nazarda tutilgan shartlarda belgilangan tarif asosida «Yuz.uz» axborot portali (*sayt yoki ijtimoiy tarmoqlar*)da reklama-axborot materiallarini chiqarish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatadi.

1.2. Buyurtmachi ushbu shartnomada kelishilgan miqdor, tartib va muddatlarda to‘lovlarini amalga oshiradi.

2. SHARTNOMA SUMMASI VA TO‘LOVLARNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI

Reklama turi	Bazaviy tarif	O‘lchov birligi	Miqdori	Chegirma (%)	QQSsiz summa	QQS (12%)	Umumiyligi (QQS bilan)
www.yuz.uz saytida PR maqola chiqarish	500 000	marta	40	30%	14 000 000	1 680 000	15 680 000
						JAMI:	15 680 000

2.1. Shartnoma umumiyligi: **15 680 000 (O‘n besh million olti yuz sakson ming) so‘m, QQS bilan.**

2.2. Buyurtmachi shartnoma umumiyligi summasining 100% ini oldindan to‘laganidan keyin hamda Bajaruvchiga barcha hujjat (*murojaat xati, guvohnoma, litsenziya, sertifikat, to‘lov topshiriqnomasi*) va zaruriy vositalar (*matn, rasm, logotip, audio-, videofayl, illyustrativ vositalar, havolalar va boshqalar*)ni taqdim etgach, reklama sayt yoki ijtimoiy tarmoqqa joylanadi.

2.3. Agar mazkur shartnoma uzoq muddatga (*bir yillik*) tuzilsa, Buyurtmachi shartnoma umumiyligi summasining 30% ini oldindan to‘laganidan keyin (*barcha hujjat va zaruriy vositalar ham taqdim etiladi*) reklama materiallari portalda chiqariladi. Qolgan 70% summa oyma-oy (*yoki chiqqan materiallarga qarab fakt bo‘yicha*) to‘lab boriladi. Bunda reklama chiqqan oy oxirida Bajaruvchi elektron hisobvaraqt-fakturna (*dalolatnoma*) yuboradi hamda u Buyurtmachi tomonidan 10 (*o‘n*) kun ichida imzolanib, to‘lovlar ham shu muddatda amalga oshiriladi.

2.4. Buyurtmachi byudjet tashkiloti bo‘lgan taqdirda, mazkur shartnoma Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G‘aznachilik xizmati qo‘mitasida ro‘yxatdan o‘tgan sanadan boshlab 5 (*besh*) bank ish kunida 2.1-banddagiga summaning 30% ini Bajaruvchining hisobraqamiga o‘tkazadi. Shartnoma summasining qolgan 70% ini to‘lash 2.3.-banddagiga tartibda amalga oshiriladi.

2.5. Shartnoma muddati davomida Bajaruvchi o‘z xizmati uchun o‘rnatgan tariflari o‘zgarmaydi.

3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Bajaruvchining huquq va majburiyatları:

3.1.1. Reklama xizmatlari uchun to‘lovni ushbu shartnomadagi muddat va tartibda to‘lanishimi talab qilishi mumkin.

3.1.2. Reklama materiallari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, «Reklama to‘g‘risida»gi Qonunga zid bo‘lsa yoki texnik talablarga javob bermasa (*noto‘g‘ri manzil yoki havolalar, sifatsiz rasmlar, talabga javob bermaydigan audio-, video materiallар va boshqalar*) yoxud to‘lov amalga oshirilmaganida reklamani joylashtirmaslik huquqiga ega.

3.1.3. Reklama materialidagi kamchilik va xatolarni (*grammatik, uslubiy, texnik*) tuzatishi, tahrir qilishi mumkin.

3.1.4. Reklama materiallarining o‘z vaqtida va sifatlari chiqishini ta’minkaydi.

3.1.5. Buyurtmachining asosli istak va mulohazalarini inobatga oladi.

3.1.6. Materiallarni portalga joylashdan oldin oxirgi variantni Buyurtmachiga kelishish uchun ko‘rsatib oladi.

3.2. Buyurtmachining huquq va majburiyatları:

3.2.1. Reklama materiallari hajmini, necha marta va qancha muddatda chiqishini belgilashi mumkin.

3.2.2. Agar qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha imtiyozga ega bo‘lsa, asoslantiruvchi hujjatlar taqdim etilganda undan foydalaniši mumkin.

3.2.3. Bajaruvchiga «Reklama to‘g‘risida»gi Qonunga, O‘zbekiston qonunchiligiga to‘liq javob beradigan, tasdiqlangan, to‘laqonli va ishonchli reklama materiallarini reklama chiqishidan kamida 5 kun oldin taqdim etadi.

3.2.4. Reklama materiallaridagi mahsulot uchun sertifikat yoxud xizmatlar uchun litsenziya olinishi lozim bo‘lsa, Bajaruvchiga sertifikat yoxud litsenziya nuxsalarini topshiradi.

3.2.5. To‘lovlarini ushbu shartnomadagi muddat va shartlarda o‘z vaqtida hamda to‘liq amalga oshiradi.

3.2.6. Reklama materiallarining dizayni, mazmuni, ishonchligi, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiqligi uchun Buyurtmachi javobgar.

4. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. Bajaruvchi – uzsiz sabablarga ko‘ra reklamani kechiktirishga yo‘l qo‘ygani uchun (*Buyurtmachi barcha to‘lovlarini o‘z vaqtida amalga oshirgan hollarda*) kechiktirilgan har bir kun uchun kechikkan reklama umumiyligi narxining 0,1 foizi miqdorida, Buyurtmachi esa shartnomadagi to‘lov muddatlariga rioya qilmagan hollarda har bir kechikkan kun uchun kechiktirilgan summaning 0,1 foizi miqdorida penya to‘laydi. Penyalar shartnoma umumiyligi summasining 50 foizidan oshishi mumkin emas.

4.2. Penyalarni to‘lash yoxud yetkazilgan zararni qoplash aybdor Tomonni shartnoma bo‘yicha majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

4.3. Buyurtmachi va Bajaruvchi reklama to‘g‘risidagi qonunni yoki O‘zbekiston qonunchiligini buzganlik uchun tegishli tartibda javobgardir.

5. NIZOLARNI HAL ETISH

- 5.1. Sharhnomadan kelib chiqadigan barcha kelishmovchilik va nizolar muzokaralar yo‘li bilan hal qilinadi.
5.2. Agar muzokaralar naf bermasa, nizolar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida hal qilinadi.

6. FORS-MAJOR

- 6.1. Yengib bo‘lmaydigan kuchlar – fors-major holatlari (*tomonlarning irodasi va faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan tabiat hodisalari: zilzila, ko‘chki, bo‘ron, qurg‘oqchilik, toshqin yoki ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy holatlari: urush, qamal, harbiy harakatlar, davlat manfaatlarni ko‘zlab import va eksportni taqiqlash, valyuta operatsiyalarini cheklash; turli epidemiyasi, pandemiya va boshqalar*) yuzaga kelgani to‘g‘risida Tomonlar ular paydo bo‘lgan paytdan boshlab 24 soat ichida bir-birini xabardor qiladi.

- 6.2. Fors-major holatlarda Tomonlar sharhnomasi bo‘yicha majburiyatlarini to‘liq yoki qisman bajarmagani uchun javobgar bo‘lmaydi. Umuman, fors-major holatlarda Tomonlar bu boradagi O‘zbekiston qonunchiligiga muvofiq ish ko‘radi.

7. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLASHUV

- 7.1. Ushbu sharhnomasi bo‘yicha Tomonlar korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlari talablariga riosa qilish va o‘z huquq yoki majburiyatlar bilan bog‘liq holda korrupsiyaga qarshi qonun normalarini buzadigan har qanday harakatni amalga oshirmslik majburiyatini oladi. Shu jumladan, jismoniy yoki yuridik shaxslarga, tijorat tashkilotlariga, hokimiyat va o‘zini o‘zi boshqarish organlariga, davlat xizmatchilariga naqd yoki boshqa shaklda pora berish va uni taklif etish, pora va da qilishga yo‘l qo‘ymaydi.

- 7.2. Tomonlar sharhnomadagi korrupsiyaga qarshi shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga riosa etilishi bo‘yicha hamkorlikni ta’minlaydi.

- 7.3. Tomonlar quydagilarni tasdiqlaydi va kafolatlaydi:

Tomonlar, shuningdek, ularga aloqador shaxslar o‘z faoliyatini vijdoran va qonuniy ravishda, yuksak axloqiy meyorlarga riosa qilgan holda olib borishlari shart. Tomonlar soliqqa oid firibgarlikka, har qanday shaklda soliq to‘lashdan bo‘yin tov lashni rag‘batlantirishga va boshqa noqonuniy xatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymaydi, korrupsiyaga nisbatan murosasizlikka amal qiladi hamda yuqorida qayd etilgan masalalarni doimiy nazoratga oladi.

- 7.4. Tomonlardan biri mazkur sharhnomanining ushbu bandidagi majburiyatlarini buzgan taqdirda, ikkinchi tomon sharhnomani bir tomonlama to‘xtatib turishga yoki bekor qilishga haqla.

8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI. YAKUNIY QOIDALAR

- 8.1. Ushbu sharhnomasi imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va reklama materiali saytda (*yoki ijtimoiy tarmoqlarda*) chiqqach, yakunlangan hisoblanadi. Reklama materiali chiqqach, Bajaruvchi elektron hisobvaraq-faktura hamda akt jo‘natadi va u 10 (*o‘n*) kun ichida Buyurtmachi tomonidan imzolanadi.

Sharhnomasi uzoq muddatga tuzilganda u imzolangan kundan boshlab (*Buyurtmachi byudjet tashkiloti bo‘lgan taqdirda, mazkur sharhnomasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G‘aznachilik xizmati qo‘mitasida ro‘yxatdan o‘tgan sanadan e’tiboran*) kuchga kiradi hamda 2023-yil 31-dekabrgacha amal qiladi.

- 8.2. Yuborilgan va imzolangan jami elektron hisobvaraq-faktura, aktlar Bajaruvchining reklamalarini «Yuz.uz» informatsion portaliga (*saytg‘a / ijtimoiy tarmoqlarga*) joylaganini, Buyurtmachining esa hech qanday e’tirozi yo‘qligini, umuman, sharhnomasi shartlari bajarilganini bildiradi.

- 8.3. Tomonlarning kelishuviga ko‘ra, sharhnomanining amal qilish muddati uzaytirilishi mumkin. Bu Qo‘sishimcha kelishuv bilan rasmiylashtiriladi. Umuman, sharhnomaga kiritiladigan barcha o‘zgartirish, qo‘sishimchalar Qo‘sishimcha kelishuv bilan rasmiylashtiriladi. Qo‘sishimcha kelishuv ushbu sharhnomanining ajralmas qismidir va bir xil yuridik kuchga ega.

- 8.4. Sharhnomasi har bir Tomon uchun bir xil yuridik kuchga ega bo‘lgan ikki nusxada tuzildi.

- 8.5. Tomonlarning o‘zaro kelishuviga asosan, sharhnomasi muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin.

9. TOMONLARNING YURIDIK MANZILI, REKVIZITLARI

«BAJARUVCHI»

Iqtisodiyot va moliya vazirligi g‘aznachiligi

H/r: 2340 2000 3001 0000 1010

Markaziy bankning Toshkent shahar Bosh boshqarmasi

MFO: 00014, STIR: 201 122 919

«Yangi O‘zbekiston» va «Pravda Vostoka»

gazetalari tahririyati» DK

100000, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Matbuotchilar ko‘chasi, 32-uy

Sif. H. 4700 1086 0262 7370 1120 2080 001

STIR: 201 140 445, OKED 58130

Telefon: (+998 71) 233-08-83, 233-70-98.

QGS kod: 326 010 005 184

Sh.I. XIDIROV

«BUYURTMACHI»

Samarqand davlat veterinariya meditsinasasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
140103, Samarqand viloyati, Samarqand shahri,

M.Ulug‘bek ko‘chasi, 77-uy
ShG‘H: 400910860184017094100250001

STIR: 201 878 451, OKONX: 92110

Tel/faks: (8366) 234-07-86

Samarqand viloyati G‘aznachilik boshqarmasi

G‘azna h/v: 23402000300100001010

Markaziy bankning Toshkent shahar Bosh

boshqarmasi, MFO: 00014, STIR: 201 122 919



X.B. YUNUSOV

N. Osseet
U. Ferzalov